

**MAVZU: ABDULLAXON II DAVRINING MUHTASHAM
INSHOOTLARI**

Babayarova Shahnoza Shuhratovna

Navoiy davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XVI asrda Buxoro xoni Abdullaxon II davrida bunyod etilgan muhtasham toqi va tim inshootlariga tavsif beriladi. Inshootning qurilish tarixi, uning o'ziga xosligi kabi masalalar batafsil tahlil qilinadi. Xonlik davrida tim va toqilarning qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, savdo-sotiq taraqqiyotidagi o'rni masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: Abdullaxon II, Toqi Zargaron, Toqi Sarrofon, Toqi Telpakfurushon, usti yopiq bozorlar, Abdullaxon timi.

Abstract: This article describes the magnificent Toqi structures built in the 16th century during the reign of Bukhara Khan Abdullakhan II. The history of the construction of the structure and its uniqueness are analyzed in detail. Special attention is paid to the role of Tim and Toqi in the development of agriculture, crafts, and trade during the khanate.

Keywords: Abdullakhan II, Toqi Zargaron, Toqi Sarrofon, Toqi Telpakfurushon, covered markets, Abdullakhan team.

Аннотация: В статье описываются великоленные сооружения Токи, построенные в XVI веке во время правления Бухарского хана Абдуллахана II. Подробно анализируется история строительства сооружения и его уникальность. Особое внимание уделяется роли Тима и Токи в развитии сельского хозяйства, ремесел и торговли во времена ханства.

Ключевые слова: Абдуллахан II, Токи Заргарон, Токи Саррофон, Токи Тельпакфурушон, крытые рынки, команда Абдуллахана.

Toqi Zargaron Buxorodagi toqilarning eng yirigi va mujassamoti jihatidan murakkabi hisoblanadi. Toqi Zargaron Buxoro xoni Shayboniy hukmdor Abdullaxon

II davrida XVI asrda qurilgan. Toqi Zargaron (fors.-zargarlar toqi) –Buxorodagi me'moriy yodgorlik hisoblanadi. Zargarlik buyumlari sotish uchun mo'ljallangan savdo markazi. Toqi Zargaron Abdullaxon II tomonidan 1586-1587 yillarda Buxoro shahrida bunyod etilgan. U Buxoroning Chorsu bozorida joylashgan bo'lib, ikkita katta yo'lni arxitekturaviy jihatdan uyg'unlashtirgan va ikkala yo'lda qatnovini osonlashtirgan. Toqi Zargaronning toqida o'ttizdan ortiq zargarlik do'koni va ustaxonalari bo'lgan.[1] Uning sakkiz burchakli ichki xonasi ustiga bahaybat 16 darchali merdional qobirg'ali gumbaz yopilgan. Bu gumbazning atrofida kvadrat shaklni hosil qiluvchi kichik gumbazlarni ko'rish mumkin. Ular burchaklardagi do'kon va ustaxonalar tomidir. Savdo inshooti ichida qo'li gul zargarlar to'planib, nozik asboblardan bilan nafis uzuk va ziraklar, qurol-aslahalarga ajoyib gardish va bezaklar, uyma muhrlar, marjon va munchoqlar yasalar edilar. Gumbaz tomligi bu xonalar keng va orambaxsh salqin bo'lgan. Bunday yopiq bozorning binosi an'anaviy forsiy uslubida qurilganligini va Tehron, Isfaxon, Shiraz, Tabriz yoki Mashhad kabi Eronning qadimiy shaharlarining yopiq an'anaviy bozorlari bilan bir hil ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu bozor yo'lidan to'g'ri Abdullaxon timiga boriladi.[2]

Gumbazi arablar bosqiniga qadar qurilgan deb taxmin qilinadi. Toqi Zargaron Ulug'bek madrasasi yonida, qadimiy shahriston markazi -2 katta ko'cha kesishgan chorraha ustini qoplab turadi. Toqning atrofida kvadrat shaklini hosil qiluvchi kichik gumbazlar mavjud. Sakkiz burchakli xona ulkan gumbaz bilan yopilgan. Ular burchaklardagi do'kon va ustaxonalar tomi bo'lgan. Toqning gumbaz tomligi xonalari bo'lib, salqin va qorong'i bo'lgan. Toqda ziraklar, uzuk, qurol-aslahalar uchun bezaklar, o'yma muhrlar, munchoq va marjonlar ustalar tomonidan yasalgan. O'rta asrlarda mohir ustalar toqda zargarlik buyumlari yasashgan.[1]. Toqi Zargaronda chet davlatlaridan savdogarlar kelib o'z buyumlarini sotishgan. Asosan bu toqda arablar, forslar, hindlar, ruslar, xitoyliklar, turklar va boshqa millatga mansub savdogarlar kelishgan. Ular toqda Xitoy shoisi, Kashmir ro'moli, Misr zarbof gazlamalari, arab joynamozlari, nafis hind matolari, Tibet ziravorlari, duxobaning alohida turlari kabi mahsulotlar sotishgan. Toqi Zargaronda umumiy ovqatlanish uchun ajratilgan joylarda non, somsa, issiq taomlar tayyorlab sotilgan. Mazkur toqda hukmdor

farmonlari ham e'lon qilingan.[2].O'tmishda uning dalonlarida 36 zargarlik ustaxonasi va do'konlar bo'lgan.Mustaqillik yillarida Toqi Zargaron qayta ta'mirlandi.Toqi Zargaronda hozirgi kunda hunarmandlar ustaxonalari va savdo rastalari mavjud.Buxorodagi to'rtta eng yirik savdo inshootlarining biri hisoblangan Toqi Zargaronda ham nafaqat ichki savdo, balki tashqi xalqaro savdoni amalga oshirish uchun barcha sharoitlar muhayyo etilgan.

Toqi Telpakfurushon(fors – telpakfurushlar toqi)-Buxorodagi me'moriy yodgorlik.Bosh kiyimlar tayyorlash va sotishga mo'ljallangan gumbazli bino.Ushbu toq turli tomonlardan kelib tutashgan 5 ko'chaning kesishgan joyida qurilgan.(1570-1571).Bino ilgari Choxarsuyi Oxanin,Toqi Kitobfurushon va Toqi Xoja Muhammad Parron kabi nomlar bilan atalgan.Undan so'ng,Chahorsuyi Anorfurushon, keyinchalik Toqi Ordfurushon va Toqi Allofi deb atalgan.[]Bosh gumbazi 6 qirrali devor ustiga o'rnatilgan, atrofi ko'cha, ko'chalardan kirish qismlari esa kichik gumbazchalar bilan yopilgan.Gumbaz diametri 38m,zal shifti 10m, savdo ko'chasining saqlanib qolgan maydoni 28m, ko'cha kengligi 14m.Yodgorlik boshqa toqlarga nisbatan kengligi, hashamdorligi, ko'chalarga olib chiqadigan uzun yo'laklari bilan chinakam Sharq bozorini aks ettirgan. Toqi Telpakfurushon nafaqat savdo-sotiq markazi, bozor inshooti, balki muqaddas joylardan biridir. Sababi, toq gumbazi ostidagi burchaklarning birida mirshablarning piri Hazrat Xoja Muhammad Parron qabri joylashgan. Toqning bosh gumbazi olti qirrali devor ustiga o'rnatilgan bo'lib, atrofi ko'cha, ko'chalardan kirish qismlari esa kichik gumbazchalar bilan yopilgan.Ayniqsa, Toqi Telpakfurushon o'zining Abdullaxon timiga va boshqa ko'chalarga olib boradigan gumbazlari bilan mashhurdir. Toqi Telpakfurushon XVI asrda 1571-yillarda shayboniylar sulolasi vakili bo'lgan Iskandarxon boshqaruvi davrida bunyod etilgan bo'lsada aslida uning bunyodkori Abdullaxon II hisoblanadi.[3] U bosh kiyim va kitob sotuvchilar do'koni bo'lgan. Toqi Telpakfurushon arxitektura yodgorligi uzun bo'lmagan ko'cha ustidagi gumbazlari hamda bosh gumazi bilan ko'zga tashlanadigan e'tiborga loyiq takrorlanmas inshootdir.[4]

Bu toq ham chorrahada joylashgan bo'lib, unda ko'chalar muntazam burchak hosil qilib emas balki, tasodifiy kesishgan. Inshoot 6 qirrali bo'lib, o'rtada katta xonaga

birlashtirilgan va usti katta gumbaz bilan yopilgan. Binokor usta yelpig'ich shaklidagi ko'chani ajoyib burilishlar qilib muntazam olti oyoqli shakldagi xonada birlashtirgan. Bu xonaning tomi ham katta gumbaz bilan yopilgan. Gumbazda esa darchalar ochilgan. Zar do'ppi, iroqi va boshqa xil do'ppilar do'konlarning rastalarini bezab turgan. Bir vaqtlar bu yerda misqoli salla, tulki va qunduz mo'ynali telpaklar sotilgan. [5].

Toqi Sarrafon shayboniylar sulolasi vakili Ubaydullaxon tomonidan 1535-yilda bunyod etilgan. Toqi Sarrafon Buxoro shaharni Registon bilan bo'g'lovchi magistral yo'l bo'ylab o'tgan qadimiy Shohrud arig'i ustida qad ko'targan. Hozirda bu ariq betonlangan va toshdan terilgan. Qadimda bu bozor pul almashtirish bozori sifatida faoliyat yuritgan. Izlanishlar natijasida bu bozor hududida IX asr Somoniylar davrida aholi yashaganligini ko'rsatadi. [6]

Inshootda 8 qirrali bir – biri bilan keshgan to'rtta ravoqqa tayangan gumbazi diqqatga sazovordir. Gumbazlar Buxoro arxitekturasiga xos “chorzamin” usulida yopilgan. Tom qismi “chorzamin” usulida gumbaz qilib yopilgani to'g'ri to'rtburchak shakldagi xona planiga kvadrat shaklida monand tushgan.

Toqi Sarrofon gumbazida hind sarroflari (bir davlatning pulini ikkinchi davlat puliga almashtiruvchi kishilar) o'tirgan hamda shu sababli bu joy Toqi Sarrofon deb atalgan. Sarroflar savdo-sotiqda bevosita ishtirok etuvchi shaxslardan hisoblangan. Ular turli mamlakatdan kelgan savdogarlarda turli pul birliklari bo'lganligi tufayli savdoni amalga oshirishda sarroflar xizmatidan foydalanilgan. Buxoroda sarroflar nomi bilan inshootlar ko'p bo'lib, sarroflar karvonsaroyi, sarroflar ko'prigi, sarroflar masjidi, ko'chasi, sarroflar hammomi singari obyektlari mavjud bo'lgan. Toqi Sarrofon masjid darvozasi tepasidagi yozuvda “Bu qurilish Ubaydullaxon hukmronlik qilgan davrda 1534-1535 yillarda tugallangan” kabi ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu bitikni buxorolik husni xat sohibi Muhammad Darvesh Qo'noq yozgan. [7] XX asrning 80-yillarida olib borilgan ta'mirlash ishlarida toqning masjidi kiraverishidagi bitiklar qayta tiklangan va ta'mirlash ishlari olib borilgan. Mazkur toqda hozirgi kunda hunarmandchilik ustaxonalari va savdo rastalari faoliyat olib bormoqda.

Abdullaxon II davrida jo'ybor shayxlaridan Xoja Muhammad Islom va Xoja

Sa'dlar ham toq, tim, (yopiq bozor), hunarmanchilik va savdo ustaxonalari singari inshootlarini qurilishida o'zlarining kuch va mablag'larini sarfladilar. Savdo inshootlarining qurilishida nafaqat shayboniy sultonlar balki, shu davrning ijtimoiy-iqtisodiy mavqeyiga ega shaxslari ham o'z hissalarini qo'shishgan.[8]

XVI asrda Buxoro shahri ko'chalarida qator tushgan do'konlar, ustaxonalar, omborxonalar, karvonsaroylar tufayli ko'chalar anchayin siqilgan bo'lib, bu ko'chalarda bir vaqtlar karvonlarning keti uzilmay gavjum bo'lgan. Bu yerdan cho'l bosib kelgan savdogarlar o'tar, zargar va zardo'stlar, gilam to'quvchilar, zardo'ppi va beqasam to'n tikuvchilar hamda boshqa qo'li gul ustalar o'z do'kon va ustaxonalariga oshiqar edilar. Tim va toqlar bozori asosan badavlat tabaqa bozori edi. Bu yerda joylashgan do'kon joylari qimmat turar edi. XVI asrning ikkinchi yarmida shayboniylar hukmronligi davrida Movaraunnahr savdo-sotiq rivojlangan shu bilan bir qatorda qo'shni davlatlar bilan savdo aloqalari amalga oshirilgan.[9]

Abdullaxon timi(Timi Abdullaxon) –Buxoro xoni shayboniy Abdullaxon II davrida 1577-yilda bunyod etilgan. Abdullaxon timi Katta tim ya'ni Timi Kalon kabi nom bilan ham atalgan.Ushbu tim gazlamalar sotish maqsadida qurilgan.Mazkur tim asosiy savdo ko'chasida joylashgan va 6ta ravoqli darvozadan iborat bo'lgan. Bu inshootda 8 gumbazli xona bo'lib, savdo do'konlari tutashgan.Abdullaxon timi asosi murabba tarxli(39x42), 3tomoni berk, bosh tarzidagi peshtoq orqali kiriladi.Baland gumbazli bostirma timni o'rab turadi.O'rtadagi miyonsaroy(diametri-10metr) baland gumbaz bilan yopilgan.[10]Gumbaz ostidagi ravoqli teshiklardan yorug' tushadi. XX asr boshlarida timda shoyi va boshqa turdagi gazlamalar sotilgan. Gazlamalar maxsus sandiqlarda saqlangan.Ushbu tim oldida XVI asr oxirlarida Choxarso'yi Darun ya'ni Ichki do'kon mavjud bo'lgan va ushbu do'konni har xil mollar sotishga mo'ljallangan 30ga yaqin do'koni bo'lgan.Bu yerda to'rtta gilam va to'rtta etik sotadigan do'kon ham bo'lgan. Abdullaxon timi Buxoro shahridagi savdo rastalari, chorsu-toq binolari ichida eng kattasi va ancha murakkab, xushbichimi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Pugachenkova G.A. Tim va toqilar.T:O'zbekiston 1965.
2. I.Muhsinov, M.Muhsinova. Go'zallikning boqiy umri. Buxoro 2011.

3. Vaxitov M.M, Mirzaev SH.R. Me'morchilik T:Tafakkur 2010.
4. Mirzaqulov B. Buxoro tarixi zarvaraqlarida eng qadimgi davrlardan XX asr 20-yillari 2-yarmigacha. T:Lesson Press 2016.
5. Inoyatov S.I., Xayitova O.S., Karmana tarix ko'zgusida,T:Sharq, 2006.
6. Bobojonova F.X. Buxoro me'moriy obidalar tarixi. Buxoro, 2022.
7. Xayitova O. Karmanalik buyuk siymolar va muqaddas qadamjolar T:Yangi asr avlodi, 2004.
8. Pugachenkova G.A. Buxoroning arxitektura yodgorliklari. – Toshkent.: O'zbekiston, 1965.
9. Ahmedov M.Q. O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi. Toshkent.: O'zbekiston, 1995.
10. Xayitova O.S. Karmana shahrining Buxoro xonligi ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida tutgan o'rni. Diss....tarix fan. nom. T:2004.